

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi
(faoliyat turi bo'yicha) magistratura
mutaxassisligining
MALAKA TALABLARI**

*Y3P OYMTB
Ejemplar № 344
7.08.2023*

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «7 » 06 dagi 244 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar ta'lif vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarini tavsifi	4
1.2.1.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	<i>70110101</i> – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilar talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Magistraturada o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalilaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun magistratura ta'lim dasturining xajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i 5117-sodan qaroriga ko'ra, *70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)* mutaxassisligi magistraturasida o'qish uchun kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar.

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablar, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilar va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

• oliy ta'lif tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarini tavsifi.

1.2.1. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) – ta'lif sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lif muassasalarida muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, mos ta'lif yo'nalishlari bo'yicha ta'lifni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- oliy ta'lif tizimi muassasalarida mutaxassislik bo'yicha o'quv-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy va texnik loyihalari, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar majmuasi.

1.2.3. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrler kasbiy faoliyatlarining turlari

• *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*

• *pedagogik faoliyat;*

• *ma'naviy-ma'rifiy;*

• *tashkilly-boshqaruv;*

• *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, professional ta'lif tizimidagi pedagogik faoliyat.*

1.2.4. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- manbalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

- zamonaliviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lif-tarbiyaga doir

nazariyalar, konsepsiylar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

- ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Pedagogik faoliyatda:

- fanning zamонавији ютуqlари, педагогик texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama rivojlantirish jarayonini motivatsiyalash va faollashtirish, o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsiyonalligiga erishish, didaktik vositalardan samarali foydalanish; zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish, mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish, har bir darsni tashhis etish, prognozlash va puxta loyihalashtirish;

- har bir mashg'ulotning ta'limi vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish va o'zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo'llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan mos ravishda foydalanish;

- jamoaviy faoliyat usullari bilan birga ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish, tezkor qayta aloqani ta'minlash, nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar (vatanparvarlik, tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizommlilik, mustaqillik, tolerantlik va boshqalar)ni shakllan-tirish;

- pedagogik odob talablariga amal qilish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lish;

- ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faoliytni shakllantirish hamda rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rghanish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini hamda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash;

- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rghanish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyihalash-tirish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini ta'lim oluvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariiga, shu jumladan ularning ta'limi ehtiyojlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

- pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini o'rghanish va tahlii qilish hamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-quvvatlash tizimini loyihalashtirish;

- pedagoglarning hamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda qo'llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baholash;

- ta'limiy dasturlarni va ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlan-tirish yo'llarini loyihalashtirish;

- o'quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik-korreksion materiallarini loyihalashtirish;

- o'qitish jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'limiy muhitni loyihalashtirish;

- bo'lg'usi pedagogik faoliyatni loyihalashtirish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

- o'quvchilarida mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarni olib borish;

- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

- ilmiy va o'quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimidagi pedagogik faoliyatda:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar va umumiyy o'rta ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotiarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-zini rivojlantirish;

- elektron axborot ta'lif muhitida ta'lif jarayonini pedagogik loyihalashtirish;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;
- uzlusiz ta'lif tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

2. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrantlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

2.3.1. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Fanlarga ajratilgan soat	Fanlarga ajratilgan kredit miqdori
Majburiy fanlar	840	28
Tanlov fanlari	960	32
Ilmiy faoliyat	1800	60
jami	3600	120

**2.3.2. 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi	Umumiy yuklamani ng hajmi
		soatlarda	kreditda
1	2	3	4
1.00.	Majburiy fanlar	840	28
1.01.	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5
1.02.	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasidagi islohotlar	150	5
1.03.	Pedagogikaning pragmatik aspektlari	150	5
1.04.	Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish	150	5
1.05.	Kasbiy ma'naviyat	90	2
1.06.	Pedagogik fikrlar taraqqiyoti	150	5
2.00.	Tanlov fanlar	960	32
3.00.	Ilmiy faoliyat	1800	60
	JAMI	3600	120

2.4. Kvalifikatsiya:

O'qituvchi-tadqiqotchi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, pedagogikaning konseptual asoslari, yaxlit pedagogik jarayon, ta'lim-tarbiya nazariyalari va konsepsiyalari, ta'lim va tarbiya paradigmalari, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, komparativistik pedagogika, ta'lim jarayoni, pedagogik ergonomika, pedagogik ekspertiza, pedagogik risklar, pedagogik faoliyat, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Kelishuv varagi

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor  A. Kirgizbayev

2023-yil



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish

ta'limotlari markazi
 direktori  Sh. Yakubov

2023-yil « 26 » iyul
M.O.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi

direktori  Sh. Sattorov

2023-yil « 26 » iyul
M.O.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektor  Sh. Sharipov

2023-yil « 26 » iyul

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b.

 A. Qalandarov

2023-yil « 26 » iyul
M.O.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)
magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talabilarini va o'quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalarini va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"26" iyul 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birligida TDPUda ishlab chiqilgan quydagi magistratura ta'lim yo'nalihsining malaka talabilarini va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi

Malaka talabilarini hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oly ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan (hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talabilarini va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalihi bo'yicha malaka talabilarini o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talabilarini va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi direktori**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

Sh.Sattarov

Sh.Sharipov

A.Kirgizbayev

